

SUN'iy INTELLEKTDAN FOYDALANISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATI: CHUQURLASHTIRILGAN NAZARIY TAHLIL

Ibragimova Go'zal Ilhom qizi,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish sharoitida oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatining transformatsiyasi chuqurlashtirilgan nazariy tahlil asosida yoritiladi. Maqolada raqamli transformatsiya nazariyasi, data-driven management konsepsiyasi, dinamik qobiliyatlar nazariyasi hamda innovatsion menejment yondashuvlari integratsiyasi asosida oliy ta'lim boshqaruvining yangi modeli asoslanadi. Tadqiqot natijasida SI asosidagi adaptiv va prognozlashga yo'naltirilgan boshqaruv tizimining konseptual modeli ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, oliy ta'lim boshqaruvi, raqamli transformatsiya, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv, dinamik qobiliyatlar, strategik yetakchilik.

Аннотация. В данной статье на основе углубленного теоретического анализа освещается трансформация управленческой деятельности высших учебных заведений в условиях использования технологий искусственного интеллекта (ИИ). В статье обоснована новая модель управления высшим образованием на основе интеграции теории цифровой трансформации, концепции data-driven management, теории динамических способностей и подходов инновационного менеджмента. В результате исследования разработана концептуальная модель адаптивной и ориентированной на прогнозирование системы управления на основе ИИ.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, управление высшим образованием, цифровая трансформация, управление на основе данных, динамические способности, стратегическое лидерство.

Abstract. This article presents an in-depth theoretical analysis of the transformation of management activities in higher education institutions under the conditions of using artificial intelligence (AI) technologies. The study substantiates a new model of higher education management based on the integration of digital transformation theory, the concept of data-driven management, dynamic capabilities theory, and innovative management approaches. As a result of the research, a conceptual model of an AI-based adaptive and predictive management system is developed.

Key words. Artificial intelligence, higher education management, digital transformation, data-driven governance, dynamic capabilities, strategic leadership.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlash masalalarini ustuvor vazifalar qatoriga qo'ydi. Oliy ta'lim sifatini ta'minlash, avvalo, ta'lim muassasalarini boshqarish jarayonlarining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi, boshqaruv qarorlarining asosli, tahliliy va prognozli xarakterga ega bo'lishi bilan bevosita bog'liq.

Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi oliy ta'lim muassasalarini boshqarish tizimiga yangi vazifalarni yuklab, boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetentsiyalariga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Boshqaruv faoliyatida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonlarini tahlil

qilish, resurslarni samarali boshqarish, strategik qarorlar qabul qilish hamda xavf-xatarlarni prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sun'iy intellekt – bu inson intellektual faoliyatini modellashtiruvchi algoritmlar va tizimlar majmuasidir. Ta'lim tizimida sun'iy intellekt ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimi tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Brynjolfsson va McAfee (2014) ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalar tashkilotlarning boshqaruv mexanizmlarini fundamental darajada o'zgartiradi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida analitik aniqlik va tezkorlikni oshiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimi tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni joriy etishda etik va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega (Hasanah et al., 2024). Shu bilan birga, sun'iy intellekt inson faoliyatini to'liq almashtirmasdan, balki uni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi kerak.

Raqamli transformatsiya nazariyasi tashkilot faoliyatining barcha yo'nalishlarida texnologik integratsiyani nazarda tutadi (Vial, 2019). Oliy ta'lim muassasalarida bu jarayon boshqaruv funksiyalarining avtomatlashtirilishi va optimallashtirilishida namoyon bo'ladi. Davenport va Ronanki (2018) fikricha, SI texnologiyalari tashkilotlarda samaradorlikni oshirish bilan birga boshqaruvning strategik xarakterini kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tizimli-tahliliy, komparativ hamda konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga ta'siri ilmiy manbalar va zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modelining samaradorligi umumlashtirish va nazariy sintez usullari orqali baholandi.

Tahlillar va natijalar. Data-driven management konsepsiyasi qaror qabul qilishni ma'lumotlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Provost va Fawcett (2013) ma'lumotlar analitikasi tashkilotlar uchun strategik ustunlik manbai ekanligini asoslab bergan. Oliy ta'lim boshqaruvida Big Data va Machine Learning algoritmlari talabalarning akademik natijalarini prognozlash, resurslarni optimallashtirish va risklarni aniqlash imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kadrlari uchun an'anaviy boshqaruv ko'nikmalari endi yetarlicha emas balki ular quyidagi asosiy kompetensiyalar majmuasiga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Strategik liderlik nazariyasi (Boal & Hooijberg, 2001) rahbarlarning murakkab muhitda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini ta'kidlaydi. SI texnologiyalari rahbarlarga kompleks ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish va uzoq muddatli prognozlar ishlab chiqish imkonini beradi. Rahbar kadrlarda sun'iy intellekt imkoniyatlarini to'laqonli tushunish

orqali, ish faoliyatida qaysi jarayonlarda avtomatlashtirish va qaysi hollarda inson omili nazoritida qolishi kerakligini bilishi zarur. Shu bilan bir qatorda (Big Data) katta hajmli ma'lumotlarni tahlil qilish va yetarlicha xulosa chiqara olish qobiyatining bo'lishi.

UNESCO (2021) hisobotida SI ta'lim sifatini monitoring qilish va prognozlashda muhim vosita sifatida baholanadi. Analitik dashboardlar va prediktiv modellar yordamida akademik ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida nazorat qilish mumkin.

N. Selwyn oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida sun'iy intellekt va avtomatlashtirishga nisbatan ehtiyotkar va tanqidiy fikrlarni ilgari suradi. "Ta'lim boshqaruvini ma'lumotlar (data) ixtiyoriga topshirib qo'yish' algoritmik boshqaruv' xavfini tug'diradi. OTM rahbarlari algoritmlar ortida turgan ijtimoiy tengsizlik va sub'ektivlikni ko'ra olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim. Boshqaruv – bu faqat samaradorlik emas, bu qadriyatlar tanlovidir" degan fikrlarni ilgari suradi. Har bir oliy ta'lim tashkilotining rahbar kadrlari o'z talaba va xodimlarining shaxsiy ma'lumotlarining himoyalanganligini taminlashi zarur. Bundan tashqari ta'lim jarayonida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentlar, maruzalar, o'quv dasturlarining plagiat masalalarida adolatli qaror va siyosat yuritishi lozim.

Russell va Norvig (2020) SI tizimlarining etik tamoyillar asosida ishlashi zarurligini ta'kidlaydi. Ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik xolislik va shaffoflik prinsiplari boshqaruv tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Boshqaruv – bu faqat samaradorlik emas, bu qadriyatlar tanlovidir" degan fikrlarni ilgari suradi. Har bir oliy ta'lim tashkilotining rahbar kadrlari o'z talaba va xodimlarining shaxsiy ma'lumotlarining himoyalanganligini taminlashi zarur. Bundan tashqari ta'lim jarayonida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentlar, maruzalar, o'quv dasturlarining plagiat masalalarida adolatli qaror va siyosat yuritishi lozim.

Mazkur tadqiqot tizimli-tahliliy, komparativ va konseptual modellashtirish metodlariga asoslanadi. Taklif etilayotgan model strategik, analitik, texnologik va adaptiv komponentlardan iborat bo'lib, SI asosida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimadagi boshqaruv faoliyatining pedagogik tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilganda, faqatgina ma'muriy jarayon emas, balki pedagogik tizimning samaradorligini ta'minlovchi va oshiruvchi murakkab mexanizm sifatida faoliyat yuritadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari, algoritmik tarfkashlik, texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, kadrlar malakasining pastligi kabi muammolarga duch kelinishi mumkin.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalari oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. U boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellektdan foydalanish oliy ta'lim muassasalari

boshqaruv faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Nazariy tahlil natijalari SI asosidagi adaptiv va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeli oliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boal, K. B., & Hooijberg, R. (2001). Strategic leadership research. *The Leadership Quarterly*, 11(4), 515–549.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age*. W.W. Norton & Company.
3. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. *Harvard Business Review*, 96(1), 108–116.
4. Provost, F., & Fawcett, T. (2013). *Data Science for Business*. O'Reilly Media.
5. Russell, S., & Norvig, P. (2020). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
6. Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities. *Strategic Management Journal*, 28(13), 1319–1350.
7. UNESCO. (2021). *Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers*.
8. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation. *Journal of Strategic Information Systems*, 28(2), 118–144.

